O’SPIRINLIK DAVRIDA KASB TANLASHDAGI HAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Normurodova Mashhura Nurilla qizi
O’ZMU Jizzax filiali 1-bosqich magistranti
mashhuranormurodova36@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqoda o’spirinlarning kasb tanlashdagi xavotirlanishining psixologik xususiyatlari o’rganiladi.O’spirinlik davrida vujudga keladigan psixologik holatlar, o’spirinlik davrida paydo bo’ladigan muammolar, ularning kasb tanlashida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, kasb tanlashdagi motivatsiyalar, ota-onalarning farzandlariga kasb tanlashdagi ko’maklari, olimlarning o’spirinlik davriga oid psixik xususiyatlarini o’rganish bo’yicha nazariyalar keltirib o’tilgan. Bundan tashqari, o’spirinlarning kasb tanlashdagi xavotirlanishlarini bartaraf qilish maqsadida bir nechta metodikalar tavsiya etilgan.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются психологические особенности тревожности подростков при выборе профессии, помощь в выборе, упоминаются теории ученых по иэучению психических особенностей, связанных с периодом подросткового возраста. Кроме того, было рекомендовано несколько методов, позволяющих устранить тревожность подростков при выборе профессии.

Annotation

This scientific article examines the psychological characteristics of adolescents’ anxiety in choosing a profession. Help in choosing a career for their children, theories on studying the mental characteristics of scientists regarding the period of adolescence mentioned. In addition, several methods recommended in order to eliminate the anxiety of teenagers in choosing a profession.

Kalit so’zlar: Ilk o’spirinlik, akseleratsiya, prepubertat, pubertat, postpubertat, yosh davrlari, xavotirlanish, kasbiy yo’nalganlik, protsessual model, psixologik metodlar.

Bugungi rivojlanayotgan Axborot texnologiyalari asri hamma sohani keng qamrab olmoqda. Shu jumladan psixologiya sohasida ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Shaxs shakllanishida, jumladan, ularning tug’ilganidan to vafot etguniga qadar psixologiyani o’rni muqim hisoblanadi. Bugungi kunda psixologiyaning bir qancha muammolari mavud va ularga yechim topish uchun qator izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu muammolardan biri bu- O’spirinlarning kasb tanlashdagi xavotirlanishi hisoblanadi. Psixologiya fani o’spirinlik muammosini kompleks o’rganishga da’vat etadi. Akseleratsiya natijasida bugungi o’spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o’rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda ya’ni 15-18 yoshlarga to’g’ri keladi. Bu davrda o’smirlik tugallangan, jismoniy jihatdan ancha rivojlangan va mustaqil mehnat qila oladigan bo’lib yetishadi. Ilk o’spirinlik davrida shaxs ijtimoiy hayotda, maktab jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqei, o’qish va turmush sharoitidagi o’zgarishlar ta’sirida tarkib topa boshlaydi. Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat va ta’lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidir. Mavjud shart-sharoitlar ta’siri ostida o’spirinning o’ziga xos axloqiy va aqliy rivojlanishini ko’rish mumkin. Fiziologlar bu jarayonni ikkinchi darajali jinsiy belgilarning paydo bo’lishiga qarab, 3 bosqichga bo’lishgan.

1. Bosqich- prepubertat
2. Bosqich- pubertat
3. Bosqich- postpubertat

O’spirinlik – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o’z taqdirini o’zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. O’spirinlik davrini ikkinchi o’tish davri deb hisoblash mumkin. Bunda kattalar ularga nisbatan kattalarga qilinadigan munosabatda bo’lishadi. Ilk o’spirinlik davrida yoshlar hayotda o’z o’rnini topishga nisbatan intilishi anglangan holatda bo’ladi. U o’z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchu harakat qila boshlaydi va ma’lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo’yicha ta’lim faoliyatini davom ettiradi. O’spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda kata yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan

yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda yetarlicha bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko'proq o'qish va o'rganish kerakligini anglay boshlaydilar.

Bugungi kunda kasb tanlash har xil nuqtai nazardan qarash mumkin bo'lgan ko'p qirrali jarayondir. Shaxs jamiyatda shakllanish jarayonida o'z oldiga qo'ygan vazifalarini birin ketinlikda amalga oshirib boradi va bunda o'z qiziqishlari va layoqatini shakllantirib boradi. Yosh davrlari psixologiyasida kasb tanlash bir nechta davrni o'z ichiga oladi.

1. Davr- bolalar o'yinlari bo'lib, unda bola o'ziga har xil kasbiy rollarni tanlaydi va shu rol bilan bog'liq bo'lgan xulq-atvorning elementlarini bajaradi.
2. Davr- bu o'smirlik "xayol"i davri bo'lib, o'smir orzusida u yoki bu qiziqarli kasbning namoyondasi sifatida ko'radi.
3. Davr- Ilk o'spirinlik davri hisoblanib, kasb tanlashdir.

Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o'spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasida rivojlanish bo'lishiga alohida bergan, ya'ni, o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishi va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o'z-o'zini anglashga va axloqiy ongga ta'siri nazarda tutiladi.

4. Davr- amaliy qaror qabul qilish, kasb tanlash davri hisoblanadi va o'zi ham ikki tarkibdan iborat: birinchisi- biror soha bilan shug'ullanish uchun xohish paydo bo'ladi va konkret sohani tanlashadi, masalan, o'qituvchi bo'lish, harbiy bo'lish va hokazo.

Kasb tanlashda o'spirinlar oldiga bir qator talablar qo'yiladi; tanlagan kasbi bo'yicha yetarlicha bilimga egaligi, qobiliyati, oilaning moddiy sharoiti, sog'ligi va boshqalar.

Xavotirlanish tushunchasini birinchi marta fanga Zigmunt Freyd tomonidan kiritilgan. U bu holatni hissiy holat sifatida tavsifladi. Ko'plab boshqa psixolog olimlar ham xavotirlanish ustida ish olib borishgan. "Xavotirlanish – bu odamning tez-tez va kuchli xavotirlanishga moyilligi, shuningdek, uning paydo bo'lishining past chegarasida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat, jarayondir".

Endigina o'sib kelayotgan o'spirinlar oldida muhim muammo qaysi kasbni tanlash muammosi turadi. Ilk o'spirinlik davriga endigina qadam qo'ygan yoshlar mustaqil hayotga ilk qadam qo'yishga biroz hadiksirashadi. Bu esa ularning kasb tanlashlari uchun ham qiyinchilikni tug'diradi va ayrim holatlarda tavakkalchilikka yo'l qo'yishadi. Natijada esa o'spirinlarda umidsizliklar, noxush holatlar, ijtimoiy sustlik paydo bo'ladi. Ayrimlari esa o'z imkoniyatlarini hisobga olmagan holda zamon talabiga mos bo'lgan kasblarga o'zlarini yo'naltirishadi. Bundan tashqari, o'spirinning barcha jabhada mustaqil faoliyat yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchiliklardan biridir. O'spirinlarda xavotirlanishning eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri bu haddan tashqari talablar, o'spirinning o'z faolligini, qiziqishlarini, qobiliyatini, va moyilligini hisobga olmaydigan moslashuvchan bo'lmagan, dogmatik ta'lim tizimidir. Xavotirlanishning aniq namoyon bo'lishi yaxshi ishlaydigan o'spirinlarda namoyon bo'ladi, ular vijdonliligi, o'ziga nisbatan talabchanliligi, bilish jarayoniga emas, balki baholarga yonaltirilganligi bilan ajralib turadi. Kasbiy yo'nalganlik nafaqat ijtimoiy, balki, psixologik muammo hamdir. Psixologiyada kasbiy yo'nalganlik bo'yicha uch nazariy nuqtai nazar mavjud.

- Birinchi nuqtai nazar faoliyatning muvaffaqiyati va usullari bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarning amaliy o'zgarmasligi va barqarorligi haqida g'oyaga asoslangan. Bunda birinchi tomondan, u yoki bu ishga mos insonlarni kasbga yo'llash va tanlashga urg'u beriladi, ikkinchi tomondan u yoki bu insonning individual xususiyatlariga mos kasblarni tanlash.
- Ikkinchi nuqtai nazar qobiliyatlarni maqsadga muvofiq shakllantirish g'oyasidan kelib chiqadi, bunda har bir insonning muhim xislatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.
- uchinchi nuqtai nazar psixologiyadagoi ong va faoliyatning birligi tamoyilidan kelib chiqadi, faoliyatning individual uslubini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kasb tanlashda kasbiy maslahat juda muhim hisoblanadi. Bu jiddiy tayyorgarlikni talab qiladigan qiyin ishdir. Hozirgi vaqtda har bir maktab psixologi tomonidan o'tkaziladigan 9-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha diagnostik va maslahat ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Kasb tanlashda ilk o'spirinning ma'lumotlilik darajasi va unga intilish darajasi muhim omillar hisoblanadi. Kasb tanlash murakkab va uzoq jarayon.

Muammo na faqat umumiy davomiylikda, balki bosqichlarning ketma-ketligida hamdir. Bu yerda ikkita xavf mavjud. Ulardan birinchisi ilk o‘spirinlarning kasb tanlash jarayonini aniq va barqaror qiziqishlari bo‘lmaganligi uchun keyinga qoldirishidir. Bu keyinga qoldirish umumiy yetukmaslik, xulq-atvorning infantilligi bilan qo‘shiladi. Bu holat kasb tanlash jarayoni kattalik va barqaror “Men” obrazining, o‘z-o‘zini hurmat qilishning asosiy komponentlaridan biri ekanligini esga olsak tushunarli bo‘ladi.

Ota-onalarning urinishlari (ayniqsa ziyoli oilalarda ko‘p uchraydi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri psixologik ta’sir ko‘rsatish yordamida bu jarayonni tezlashtirmoqchi bo‘ladilar (“Sen qachon kasb tanlaysan? Men sening Yoshingda ...”). Bu esa bolalarda xavotirlanishni kuchaytirib, ba’zan hech qanday kasb tanlamasdan, turli sevimli mashg‘ulotlarni tanlashgacha bo‘lgan salbiy natijalarga olib keladi. Bunda o‘z vaqtida o‘qish davomida bolalarning qiziqishlari va dunyoqarashini kengaytirish, har xil faoliyat turlari bilan tanishtirish, amaliy mehnat ko‘nikmalarini shallantirish sifatida yordam ko‘rsatish mumkin.

Ilk o‘spirinlarning bo‘lajak kasblari haqida xabardorlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Yigit va qizlar ular tanlaydigan kasblar doirasini, har bir kasbning aniq xususiyatlarini bilmaganliklari uchun kasbni tasodifan tanlaydilar. Kasb haqida ma’lumotga ega emaslik oliy o‘quv yurtiga kirganlar orasida ham uchraydi. “Bo‘lg‘usi kasbingizning xarakteri, mazmuni va sharoitidan xabardormisiz?” degan savolga talabalarning to‘rtdan bir qismigina “ha” javobini berishgan. Inson kasb tanlayotgan vaqtida qanchalik kichik bo‘lsa, uning kasb tanlashi shunchalik mustaqil bo‘lmaydi, shaxsiy qadriyatlar tizimi asosida emas, ma’lumotlarning yetarli bo‘lmaganligi tufayli kimningdir tavsiyasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashini o‘rganib, N.S.Pryajnikov quyidagi mazmun-protsessual modelni asosladi:

1. Ijtimoiy foydali mehnatning qadr-qimmati va kasbiy tayyorgarlik zarurligini anglash (o‘z taqdirini o‘zi belgilashning qadriyat-axloqiy asosi).

2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga yo‘naltirish va tanlangan ishning nufuzini prognoz qilish.

3. Kasbiy ish dunyosida umumiy yo‘nalish va kasbiy maqsadni aniqlash - orzu.

4. Yaqin professional maqsadlarni uzoq maqsad sari bosqichlar va yo‘llar sifatida belgilash.

5. Kasblar va mutaxassisliklar, tegishli kasb-hunar maktablari va ish joylari haqida ma‘lumot berish.

6. Kasbiy maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradigan to‘siqlar g‘oyasi, shuningdek, rejalar va istiqbollarni amalga oshirishga hissa qo‘shadigan o‘z xizmatlarini bilish.

7. O‘z-o‘zini belgilashning asosiy variantida muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda zaxira variantlari tizimining mavjudligi.

8. Shaxsiy kasbiy nuqtai nazarni amaliy amalga oshirishning boshlanishi va teskari aloqa tamoyiliga asoslangan rejalarni doimiy ravishda tuzatish.

Xulosa. O’spirinlik davrida kasb tanlashdagi xavotirlilikni o’rganish va bu holatni turli psixologik usullar orqali bartaraf etish muhim. Chunki dastlabki qo’yilgan qadam yoshlarning kelajakda hayotda o’z yo’llarini topishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasbga yo’naltirishga oid metodlar, usul va vositalar ishlab chiqilgan. E.A. Klimov kasbga yo’naltirish uchun kasb turlari « inson-tabiat », « inson-texnika », « inson-inson », « inson-badiiy obraz» singari komplekslarni tavsiya qiladi. Kasb tanlashga yo’llash va kasblarni targ’ib qilish usullaridan yana biri – ko’rgazmali vositalar, ya’ni fototsendlardan, kitob ko’rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to’garagi ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg’otish mumkin. Shuningdek, o’spirinlarda xavotirlanishni aniqlash va ular asosida korreksion ishlarni o’tkazish yuqorida keltirilgan muammolarni bir muncha hal etadi. Buning uchun bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan va metodlar ishlab chiqilgan, masalan, Bezovtalikni namoyon bo’lish shkalasi Dj. Teylor, Omadsizlikdan qochish – o’z-o’zini himoyalash motivatsiyasini baholash metodikasi, “Oila rasmi”, “Yomg’ir ostidagi odam”, “UDO” rasmi testi kabilar. Bunday metodlar xavotirlanishni bir muncha kamaytirishga va o’spirinlarga

o’zlariga munosib kasb tanlashga yordam beradi. Korreksion ishlarni ota-onalar, pedagog jamoa bilan ham amalga oshirish ancha samarali hisoblanadi.O’qituvchilar tomonidan o’quvchilarga kasblar bo’yicha ma’lumot berishi, psixologlarning kasbga yo’naltirish bo’yicha tashviqot tadbirlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali zamonaviy kasblarga jalb qilish va psixologik tayyorlash o’spirinlardagi mavjud xavotirlanishni bir muncha bartaraf etadi, o’z sohasining yetuk mutaxassisi bo’lish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Z.T. Nishanova, N.G. Kamilova, D.U. Abdullayeva, M.X. Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi

2. Nematov Faxriddin Begmat o’g’li “O’spirinlik davrida kasb tanlash muammolari” maqola

3. Dilrabo Sheraliyevna Norqo’ziyeva “Ilk o’spirinlarni kasbga yo’naltirishning ayrim psixologik masalalari” maqola

4. R.X. Dushanov, Yo.A. Farfiyev Kasbiy psixologiya Toshkent-2010

5. Otamurodov Rustam Uskanovich Kasbiy qiziqish(motivatsiya)larda qo’rquv va xavotirlanish psixokorreksiyasi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent-2022